

UDK 597.2/.5

QORAQALPOG'ISTON AKVAKULTURASIDA TILAPIYA (OREOCHROMIS MOSSAMVICUS) BALIG'INI POLIKULTURA USULIDA ETISHTIRISH ISTIQBOLLARI

Joldasbaev A.M

QAXAI tayanch doktoranti

Temirbekov R.O

O'z R FAQBQTFITI katta ilmiy xodimi

Annotaciya: *Maqolada tilapiya (Oreochromis mossambicus) balig'ini yopiq suv aylanma tizimi basseynlarida umuman olganda, sun'iy suv havzalarda polikultura va monokultura usullarida o'stirish jarayoni tadqiqot natijalari bo'yicha ma'lumotlar berilgan. Chavoqlar mahalliy "Qoraqalpoqbaliqsanoat" MCHJ da baliqlar uchun maxsus ishlab chiqilgan sifatli ozuqa bilan oziqlantirildi. Tilapiya balig'i chavoqlari polikultura usulida o'stirishda monokulturaga qaraganda chavoqlarining biologik ko'rsatkichlari yuqori bo'lishi va baliq yetishtirishda 16.8 % miqdorida qo'shimcha mahsulot olish mumkinligi aniqlandi va bu usul tilapiya balig'ini etishtirishda istiqbolli hisoblanadi.*

Аннотация: *В статье представлены данные о выращивании рыбы тиляпии (Oreochromis mossambicus) методом поликультуры и монокультуры в бассейнах системы замкнутого водоснабжения. Кормления мальков проведены специально изготовленными рыбными кормами в ООО «Каракалпакбалыксаноат». При выращивании мальков тиляпии в поликультуре биологические показатели были больше, чем в монокультуре. В результате проведенных исследований выявлено, что можно получить дополнительно 16,8 % рыбной продукции. Этот метод выращивания является перспективным.*

Abstract: *The article presents data on the cultivation of tilapia fish (Oreochromis mossambicus) by the method of multiculture and monoculture in the basins of the closed water supply system. The feeding of the fry was carried out with specially made fish feeds in LLC "Qoraqalpoqbaliqsanoat". When growing tilapia fry in polyculture, biological indicators were higher than in monoculture. As a result of the conducted research, it was revealed that it is possible to obtain an additional 16.8% of fish products. This method of cultivation is promising.*

Kalit so'zlari: *Tilapiya, polikultura, pH, monokultura, basseyn, Tilapiya (Oreochromis mossambicus), yopiq suv aylanma tizimi (UZV).*

Ключевые слова: *Тилапия, поликультура, pH, монокультура, бассейн, тилапия (Oreochromis mossambicus), замкнутая система циркуляции воды (UZV).*

Keywords: *Tilapia, polyculture, pH, monoculture, pool, tilapia (Oreochromis mossambicus), indoor water circulation system (UZV).*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 maydagi PQ-2939-sonli qaroriga asosan «Baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga asosan, hozirda Qoraqalpog'iston Respublikasi suv havzalarida baliqchilikni intensiv usulda rivojlantirish ahamiyatli masalalardan biri hisoblanadi. [1]

Tilapiya balig'i ko'pincha boshqa baliq turlari bilan birgalikda o'stiriladi, bu esa suv havzalarining tabiiy ozuqa bazasidan to'liq foydalanishga imkon beradi.

Polikulturada etishtirish samaradorligi baliqlarning ayrim turlarini oqilona tanlash va ularning miqdoriy nisbati bilan belgilanadi. Polikultura – har xil turdagi baliqlarning suv havzalarida ularning oziqlanish xususiyatidagi farqlariga qarab birgalikda yetishtirish hisoblanadi. [2]

Materiallar va tadqiqot usullari.

Tadqiqot ishlari 2022 yil sentyabr oktyabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahrida joylashgan “Qoraqalpoqbaliqsanoat” MCHJ korxonasi tegishli Yopiq suv aylanma tizimida (UZV) olib borildi.

Tadqiqot davomida asosan umumiy qabul qilingan ixtiologik tadqiqot, kuzatish, bonitirovka, baliqlarning biologik o'lchamlarini olish usullaridan foydalanildi. [3]

Tilapiya (*Oreochromis mossambicus*) biologik va bir qator iqtisodiy foydali xususiyatlari tufayli akvakulturada juda keng rivojlanmoqda. Mo'tadil va subtropik iqlim zonasida joylashgan mamlakatlar akvakultura sanoatining istiqbolli obekti sifatida tilapiyadan foydalanishga tobora ko'proq qiziqish bildirmoqda. Ushbu hududlarda tilapiya balig'ini samarali etishtirish imkoniyatlari ko'p jihatdan iqlim sharoitining mos kelishi bilan belgilanadi. [4]

1-jadval

(*Oreochromis mossambicus*) balig'ini eksperimental o'stirishdagi asosiy ko'rsatkichlar

Ko'rsatkichlar	Basseynlar	
	1*	2*
PH ko'rsatkichi	7-7.1	7-7.2
Basseyn ko'lami (L)	1000	1000
Dastlabki og'irligi (gr)	5.6	6.3
Dastlabki uzunligi (sm)	5.4	6.2
Baliq chavoqlari soni (dona)	40+28	38
Oziqlantirish	Mahalliy yem bilan	

1* - polikultura sharoitida, 2* - monokultura sharoitida

Ozuqadan foydalanish va o'sish tezligining samaradorligi jihatidan Mozambik tilapiya boshqa barcha baliq turlaridan sezilarli darajada ustundir.

1-rasm



(*Oreochromis mossambicus*)

Tadqiqot natijalari. Tajriba “Qoraqalpoqbalisanoat” MCHJ korxonasi sun’iy basseynlarida olib borildi. Tajriba maqsadi tilapiya balig’i chavoqlarini polikultura va monokultura sharoitida o’sish ko’rsatkichlarini aniqlashdan iborat bo’ldi. Biz olib borgan tadqiqot ishimizga Tilapiya (*Oreochromis mossambicus*) balig’idan 40 dona olib 1000 litrli basseynnda jami og’irligi 225 gr, o’rtacha og’irligi 5,6 gr bo’lgan baliq chavoqlarini o’stirish ishlari amalga oshirildi. Polikultura obekti sifatida qo’shimcha shu basseynga jami 28 dona 175 gr bo’lgan karp chavoqlari yuborildi. Ikkinchi basseynimizga 38 dona faqat monokultura usulida tilapiya chavoqlarini o’stirdik. Chavoqlar mahalliy “Qoraqalpoqbalisanoat” MCHJ da baliqlar uchun maxsus ishlab chiqilgan sifatli omuxta em bilan oziqlantirildi. Tajriba jarayonida chavoqlar 30 kundan o’rtacha vaznlari o’lchab borildi. Birinchi basseynnda (polikultura sharoitida) vazn o’lchash jarayonida 30 kunda baliq chavoqlari o’rtacha 49,3 grammi tashkil qildi. Ikkinchi marta basseyndagi baliqlarni 60 kundan so’ng o’lchaganimizda o’rtacha og’irligi 145.7 gr bo’lganligi aniqlandi.

Ikkinchi basseynnda 38 dona jami og’irligi 239.4 gr bo’lgan tilapiya chavoqlarini kuzatish, bonitirovka, baliqlarning biologik o’lchamlarini olish usullaridan foydalanganimizda 30 kun ichida 36.5, 60 kundan so’ng 121.2 gr bo’lgani kuzatildi.

2-jadval

Polikultura va monokultura sharoitida baliq chavoqlarini ustirish kursatkichlari

№	Usul	O’rtasha vazn og’irlik		Uzunligi	Sarflang nuxta em	Suv rati °C	Yashovc gi (%)	
		Tashlanganda	Ovlanganda					
		Dastlabki og’irligi (gr)	Tajriba miyligi va og’irligi					
			30 kun					60 kun
1	Polikultura da tilapiya chavoqlari va karp chavoqlari	5.6	49.3	145.7	21.3	4.8	22-24	99

2	Monokultura da tilapiya boqlari	6.3	36.5	121.2	19.7	3.6	22-24	97
---	---------------------------------------	-----	------	-------	------	-----	-------	----

Tilapiya va karp chavoqlarini birgalikda etishtirish bo'yicha tajribalar natijasi shuni ko'rsatdiki, ikkinchi basseynga taqqoslaganda birinchi basseyndagi polikultura usulida boqilgan baliqlar 16.8 % miqdorida qo'shimcha mahsulot olish mumkin ekanligi aniqlandi. Karp balig'i basseyn devorlarida to'planib qolgan iflos ozuqa qoldiqlarini iste'mol qilishi orqali tilapiya balig'ini saqlash sharoitlarini yaxshilaydi, shuningdek suv muhitining sanitariya holatini yaxshilaydi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot ishlaridan xulosa qilib aytish mumkinki, hozirgi paytda respublika sharoitida (*Oreochromis mossambicus*) tilapiya balig'ini basseynlarda va yopiq suv aylanma tizimlarida boquvchi fermer xo'jaliklari ko'paymoqda. Asosan bu baliqni polikultura usulida etishtirish monokultura usulida yetishtirganga qaraganda yaxshiroq natija berganligini kuzatishimiz mumkin.

Respublikamiz baliqchilik sohasida yangi tur hisoblangan tilapiya balig'ini yopiq suv aylanma tizimi sharoitida monokulturaga solishtirganda polikulturada o'stirish usuli samarali hisoblanib baliqlar hosildorligining yuqori bo'lishiga imkon yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. PF 2017 yil 1 maydagi PQ-2939-sonli qarori
2. Привезенцев Ю.А., Боронецкая О. И., Плиева Т. Х. Методические рекомендации по воспроизводству и выращиванию тилапий рода *Oreochromis*. – М.:МСХ РФ, 2006.
3. Привезенцев Ю.А. Эффективность выращивания тилпии на технических и естественных теплых водах // Изв. МСХА, 1987,
4. Методы исследования пресноводных рыб Пермь 2003
5. Жолдасбаев А., Турсынов М. Амударёнинг куйи оқимида сув танқислигига боғлиқ ўсимликлар дунёсида юз бераётган ўзгаришлар. «География – келажакга назар» мавзусида республика илмий-назарий конференция материаллари. Нукус. 2021ж. 174-176 б.